



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№1

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**  
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир  
ўринбосари:**  
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**  
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**  
и.ф.д. Ф.А.Сафаров  
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

**Техник муҳаррир:**  
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**  
PhD С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**  
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида  
тарқатилади.**

**Таҳририят манзили:**  
140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,  
тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

**Таҳририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Таҳрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти в.б., DSc

<b>Ғолиб Султонмуродович Мустафоев</b> Қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш соҳасининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш	80
<b>Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva</b> Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikning ahamiyati	85
<b>Askar Axrorovich Siddikov, Ahmadbek Nizomiddinovich Najmiddinov</b> Хизмат кўрсатиш корxonalarida innovatsion faoliyatni takomillashtirish yo‘nalishlari	87
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Muslimaxon Xolmatjon qizi Soxibova</b> O‘zbekistonda ziyorat turizmi resurslarini samarali boshqarishning nazariy asoslari	90
<b>Murodjon Rajabbayevich Matniyozov</b> Methodological bases of formation of tourism image of the Khiva destination	96
<b>Kamol Sharifovich Yuldashev</b> Mustaqil turizm rivojlanishining evolyutsiyasi	100
<b>Ўткир Дўснаевич Ражабов</b> Ўзбекистонда диний туризм ривожланишининг салоҳияти ва истиқболлари	106
<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК</b>	
<b>Gulnora Mardiyevna Shadiyeva Ra‘no Akbar qizi Qulmurodova</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik – aholi turmush darajasini oshirishning bir omili sifatida	110
<b>Saodat Toxirovna Toshaliyeva</b> Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish holati tahlili	114
<b>Имомназар Эгамбердиевич Турсунов, Кермен Антоновна Наминова, Тулкин Саидахмедович Шарипов</b> Развитие малого и среднего бизнеса в условиях цифровой экономики	118
<b>Гулнора Мардиевна Шодиева, Дилноза Азаматовна Тоғаева</b> Хизматлар кўрсатиш соҳасида оилавий корxonalarни ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш	123
<b>Layli Baxtiyorovna Navruz-zoda</b> Inson tadbirkorlik qobiliyatini baholash maqsadida uning sifat xususiyatlarini tasniflash	130
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Navruzbek Zarifovich Niyatov</b> Хизмат кўрсатиш соҳасида бoshqaruv samaradorligini oshirish	134
<b>Shahlo Akramovna Maripova</b> Modern digital tools in small business management	138
<b>Bekzodjon Oblakulov, Shakhnoza Narkulova</b> Marketing Analysis of International Brand in the Case of Borjomi	143
<b>Абдухолик Эгамович Тангиров</b> Иқтисодиётни модернизациялаш шарoitida корxона бoshqaruvi ва уни ташкил этишининг моҳияти	147
<b>Зулфия Мусаевна Усманова</b> Перспективные направления совершенствования механизма управления персоналом	151
<b>ИНВЕСТИЦИЯ</b>	
<b>Jahongir Ravshanbek o‘g‘li Hoshimov</b> Yangi O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb etish holatining kompleks tahlili	155

Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti assistenti

## XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** maqolada xizmat ko‘rsatish sohasining mohiyati, ahamiyati, uning turlari, rivojlanishi va bunda kichik tadbirkorlikning roli bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** xizmat ko‘rsatish, yalpi ichki mahsulot, xizmat turlari, rejalashtirish, transport, savdo, moliya, aloqa, subyekt, xizmatlar hajmi.

**Kirish.** Xizmat turlari juda ko‘p bo‘lib, ular bir tomondan iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlar uchun tegishli sharoitlar yaratib beradi, ikkinchi tomondan esa aholining turli-tuman ehtiyojlarini qondirib, farovon yashashi uchun imkoniyat yaratadi. Xizmat turlarining asosini tashkil etuvchi transport, savdo, moliya, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari yuqoridagi vazifalarni bajarishda muhim rol o‘ynaydi. Transport xizmatlari ishlab chiqarish korxonalarini kerakli asbob-uskuna, xomashyo bilan ta‘minlaydi, ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarini iste‘molchilar manziliga yetkazib beradi. Yo‘lovchilarga manziliga yetib olish uchun va boshqa xizmatlar ko‘rsatadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda transport xizmatlari alohida o‘rin egallaydi, ya‘ni shaxsiy transport vositalari orqali ishlab chiqargan mahsulotlarini (tovarlarini) bozorlarga yetkazish arzon, qulay va mahsulotga bo‘lgan talabning oshishiga olib keladi. Savdo xizmatlari, tayyor mahsulotlarni (tovarlarni) sotib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zanjirining davom etishiga va iste‘molchilarning ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Savdo xizmatlari shuningdek ulgurji va chakana savdo xizmatlariga bo‘linadi. Moliya xizmatlari faoliyat yurituvchi subyektlar aholining hisob kitob ishlarida, kredit masalalarida yordam beradi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining faoliyat yurituvchi subyektlarni va aholining ehtiyojlarini qondirishdagi ahamiyati kata, ya‘ni axborot. Bu ma‘lumot va xabarlar to‘plami bo‘lib, mazmunan yangilik unsurlariga ega bo‘ladi va boshqaruv vazifalarini hal etish uchun o‘ta zarurdir. Shuning uchun hozirgi kunda aloqa va axborotlashtirish xizmatlaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini olib borishda muhim rol o‘ynaydi.

2023-yil 1-yanvar holatiga xizmatlar sohasida 392787 birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ular mamlakat miqyosida faoliyat ko‘rsatayotgan subyektlarning 66,3%ni tashkil etgan. Xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning 2023-yil 1-yanvar holatiga 82,9 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ri keladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xizmat ko‘rsatish sohasining ahamiyati, uning asosiy turlarining rivojlanishi bo‘yicha chet ellik va mamlakatimiz olimlari tadqiqot ishlarini olib borishgan. Bular jumlasiga xorijlik olimlardan E.Steyli, B.Garter, A.Aganbegyan, B.M.Dmitrov, M.A.Morozov kabilarni, mamlakatimiz olimlaridan mazkur sohaga oid tadqiqot ishlarini olib borgan S.S.G‘ulomov, M.K.Pardayev, M.Muxammedov, Q.J.Mirzayev, N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, J.M.Qurbonov, T.S.Sharipovlarni keltirishimiz mumkin. Mazkur olimlar o‘z tadqiqotlarida xizmat sohasi va uning turlarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan asoslab berganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzuni tadqiq qilishda guruhlash, taqqoslash, induksiya, deduksiya va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Xizmatlar sohasining mohiyati va o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularning ko‘plari xizmat ko‘rsatish jarayonida iste‘mol qilinadi. Demak xizmatlar ko‘rsatish sohasiga sarflangan mablag‘lar tezda xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarga qaytib keladi. Xizmat ko‘rsatishning yana bir o‘ziga xos xususiyatlari xizmat ko‘rsatish jarayoni uchun juda ko‘p asosiy vositalar (motor, stanoklar va shu kabilar) va ishchi sonini talab qilmaydi. Xizmat sohasi shuning uchun ham xizmat ko‘rsatuvchilar sonining ko‘pligi va tez sur‘atlar bilan rivojlanib turishi bilan ajralib turadi.

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, xizmatlar ko‘rsatish hajmi mamlakat YaIM hajmiga nisbatan yuqori sur‘atlar bilan ko‘paymoqda. 2022-yilda mamlakat YaIM hajmi o‘tgan 2021-yilga nisbatan 5,7%ga ko‘paygan bo‘lsa, xizmatlar hajmi 8,5 foizga ko‘paygan ya‘ni 1,5 barobar tezroq.

Shuni ham ta‘kidlash kerakki xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar soni ushbu yillarda yuqori

sur’atlar bilan ko‘paygan. Agarda 2018-yil mamlakatda jami 213075 birlikdagi subyektlar  
**Mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM), xizmatlar hajmi va sonining 2018-2022-yillarda  
 ko‘payish sur’atlari ( oldingi yillarga nisbatan foizda)**

Yillar	2018	2019	2020	2021	2022
Ko‘rsatkichlar					
YaIM	5,5	6,0	2,0	7,4	5,7
Xizmatlarning soni	22,8	18,0	18,1	12,4	13,0
hajmi	5,7	6,7	1,1	9,5	8,5

xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa, ularning soni 2023-yil 1-yanvar holatiga 392787 ta birlikka yetgan, ya’ni 184 foizga ko‘paygan. Xizmatlar ko‘rsatuvchi subyektlar sonining o‘shishiga nisbatan xizmatlar hajmining hajmi sekinroq ko‘paymoqda. Bu xizmatlar sohasida hajmini ko‘paytirish zaxiralari mavjudligini ko‘rsatadi.

Xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarning ko‘pchiligini kichik tadbirkorlar tashkil etadi. Agarda 2018 yilda xizmat ko‘rsatuvchi subyektlarning soni 213075 birlikni tashkil etgan bo‘lsa, ularning 153767tasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdan iborat bo‘lib, 72,2 foizini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar 2022-yilga kelib 392797 birlikdan 325809 birligi kichik xususiy tadbirkorlar bo‘lib 82,9 foizni tashkil etadi. Bu ma’lumotlar xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning hissasi ko‘payib borayotganligini tasdiqlaydi.

Xizmatlar ko‘rsatish mamlakat YaIMni yaratishda qatnashadi va YaIM hajmida katta hissani tashkil etadi.

2022-yilda mamlakat YaIM hajmi 888341,7mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning 41,5 foizi xizmatlar ko‘rsatish subyektlari tomonidan yaratilgan xizmatlar sohasining rivojlanishi iqtisodiyotning boshqa barcha tarmoqlarining rivojlanishiga, aholining turmush farovonligining yaxshilanishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev va davlat rahbarlari xizmatlar sohasini rivojlantirishga katta e’tibor berib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida, “Xizmatlar sohasida ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xizmatlar turlarini kengaytirish”<sup>1</sup> talab etilgan. Joylarda turli xizmatlar ko‘rsatuvchi “xizmat ko‘rsatish majmualari” ni tashkil etish belgilangan.

2022-yil 27-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori qabul qilindi. Bu qarorda xizmat ko‘rsatuvchi tadbirkorlarga yer, bino va infratuzilma masalalarida yordam berish, yirik shaharlarda turistlarga savdo va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchi ko‘ngilochar ko‘chalar tashkil qilish belgilangan. Natijada xizmatlar hajmi yildan yilga yuqori sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Mamlakat miqyosida xizmat ko‘rsatish hajmi 2022-yilda -8,5 foizga o‘sgan holda, Toshkent, Samarqand, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida yillik o‘shish sur’atlari 10,0-13,0 foizlarni tashkil etgan. Xizmatlar hajmida Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi -68,0 foizdan ko‘proqni tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari savdo, aloqa, sog‘liqni saqlash, yashash va ovqatlanish, maishiy buyumlarni ta’minlash kabi xizmat turlarida katta hissani (80,0 – 90,0 %) tashkil etadi.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida” mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmini 100 mlrd. dollardan oshirish, sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni 1,4 baravar ko‘paytirish, xizmat sohasini yanada jadal rivojlantirish rejalashtirilgan.

Albatta bu maqsadlarga erishish uchun ilm-fan va innovatsiyalarni tezroq iqtisodiyotga joriy etish, tadbirkorlikni qo‘llash, rag‘batlantirish lozim bo‘ladi. Xizmat sohasining rivojlanishida va belgilangan marralarni zabt etishda kichik tadbirkorlarning hissasi katta bo‘ladi

**Xulosa va takliflar.** Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash borasida bir qancha imtiyozlar berilgan bo‘lib, hozirgi kunda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlar sonini oshishiga olib kelmoqda. Ayniqsa xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning 2023-yil 1-yanvar

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Yangi O‘zbekiston gazetasi, 2021-yil 12-may.

holatiga 82,9 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ri keladi. Xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish borasida takliflar:

- Tuman markazlari va aholi yashaydigan yirik qishloqlarda xizmat ko‘rsatish markazlari tashkil etish;

- Xizmat ko‘rsatish subyektlariga kreditlar berishda hamda soliqlar to‘lashda turli imtiyozlar berish;

- Xizmat ko‘rsatish turlari juda ko‘p bo‘lib, ehtiyoj va xizmatlarga talabning oshib borishini inobatga olib, yoshlarni xizmat ko‘rsatuvchi kasblarga o‘rgatishni ko‘paytirish. Buning uchun joylarda qisqa muddatli mutaxassislar (oshpaz, sartaroshlar, poyabzal ta‘mirlovchilar, ma‘ishiy texnikani ta‘mirlovchilar, avtomobillarni ta‘mirlovchilar va shu kabilar) tayyorlashni tashkil etish;

- Qishloq joylarda aloqa va internet xizmatlarini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori.
3. Pardayev M.K. va boshqalar. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. T.: “Iqtisod-moliya” 2014-yil.
4. Xudayberdiyev U.X., Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish sohasi: rivojlanishi va muammolari. Monografiya. Samarqand, SamISI bosmaxonasi, 2020-yil. 124-bet.
5. vvv. stat.uz.

<p style="text-align: center;"><b>М.Худойбердиева</b>  <b>Значение малого бизнеса и частного предпринимательства в развитии сферы услуг</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>M.Khudoyberdieva</b>  <b>The importance of small business and private entrepreneurship in the development of the service field</b></p>
<p><b>Аннотация:</b> в статье описаны сущность и значение сферы услуг, ее виды, развитие и роль в ней малого бизнеса.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> услуги, валовой внутренний продукт, виды услуг, планирование, транспорт, торговля, финансы, связь, предмет, объем услуг.</p>	<p><b>Abstract:</b> the article describes the nature and importance of the service sector, its types, development and the role of small business in it.</p> <p><b>Keywords:</b> services, gross domestic product, types of services, planning, transport, trade, finance, communication, subject, volume of services.</p>

**Askar Axrorovich Siddikov** – SamISI, “Menejment” kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Ahmadbek Nizomiddinovich Najmiddinov** – SamISI talabasi

#### XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

**Annotatsiya:** Maqolada xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni vujudga keltirish va amalga oshirish, sohada kadrlar salohiyatini oshirish va tubdan yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali raqobatbardoshlikni oshirib, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanishning yuqori sur‘atlarini ta‘minlash imkoniyatlari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** innovatsiyalar, innovatsion jarayon, innovatsion samaradorlik, rivojlanish konsepsiyasi, iqtisodiy integratsiya, ijtimoiy ehtiyoj, rentabellik.

**Kirish.** Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hozirgi bosqichi uchun ishlab chiqarishning konsentratsiyasi, resurslar uchun raqobatning kuchayishi, axborot va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyat hayotining barcha sohalarining globallashuvi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, iqtisodiy globallashuvning uchta asosiy ko‘rinishini ajratib ko‘rsatish mumkin: iqtisodiy integratsiya darajasining oshishi, xalqaro savdo va investitsiyalarning intensiv rivojlanishi, bozorlarning yaqinlashishi yoki integratsiyasi. Bunday sharoitda global raqobatning rivojlanishi fan yutuqlarini joriy etish vaqtini qisqartirishni, ulardan mahsulot va xizmatlarda foydalanish darajasini oshirishni, innovatsiyalarni joriy etish va tarqatishni talab qiladi.

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

06.03.2024 йилда теришга берилди. 29.03.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0024А/30.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.